



**XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI QO'LLASHNING PEDAGOGIK
TAHLILI**

Abdullayeva Oydina Komiljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

abdullayevaoydina77@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlarining qo'llanishi unga oid qarorlar hamda ularning qo'llash jarayonidagi pedagogik tahlili haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Islohot, rivojlanish, PISA, PIRLS, TIMSS, xalqaro dastur, ta'lim sifati, monitoring.*

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim va tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'limni tashkil etish tajribalari tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi 5712- son Farmoniga binoan PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish shu bilan birga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli farmonida eng oliy vazifa qilib quyidagilar olindi: - xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish; - PISA, PIRLS, baholash dasturi yo'nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish. O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan amaliy ishlar, ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida



hukumat qarorining qabul qilinishi ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarini O'zbekistonda joriy etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan. Mazkur xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan OECD hamda IEA tashkilotlari o'rtasida imzolangan kelishuv hujjatlariga binoan O'zbekiston Xalqaro o'quvchilarni baholash PISA-2022 (avvalgi PISA-2021) hamda O'quvchilarning matnni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi PIRLS-2021 da ishtirok etishga kirishilgan. Endilikda, TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishildi. Bu borada IEA tashkilotining "Xalqaro matematik va ilmiy tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi"ga muvofiq O'zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o'rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Bu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi. Hozirgi kunga qadar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi o'rtasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq 2021- yilda PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtirok etish rejalashtirilgan.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

O'qish savodxonligining maqsadi:

- badiiy tajriba orttirish;
- axborotni olish va undan foydalanish.

Tushunish jarayoni:



- diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish;
- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish;
- kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

TIMSS – (Trends in International Mathematics and Science Study) maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi.

Ta'limdagi bunday o'zgarishlar o'quv dasturi va o'quv adabiyotlari mazmunini o'zgartirishga undadi. Ona tili, matematika va tabiiy fanlardan PISA baholash dasturi yo'nalishidagi savollar milliy bazasini yaratildi va o'quv dasturlariga kiritildi. PISA baholash dasturi yo'nalishidagi savollar singdirilgan o'quv dasturlari asosida qo'shimcha qo'llanma hamda adabiyotlar yaratish va amaliyotga joriy etildi. 5- sinfdan 11-sinfgacha o'quv darsliklarida buni ko'rish mumkin. PISA ona tili, matematika va tabiiy fanlarni o'qitishning shakl, metod, texnologiyalarini yangilanib o'qituvchilarning bu boradagi bilimni oshirilmoqda. Bu fanlardan o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratilib, 2019-2021-yillarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazish niyatida. PISA testlaridan ona tili darslarida foydalansa, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo'llash o'quvchining hayotiy va intellektual ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro baholash dasturlarini qo'llash pedagogik tahlili, o'quvchilarning o'zining amaliy ishlarini bajarish, nazariy bilimlarini oshirish va ma'lumotlarni tushunishini ta'minlash maqsadida o'rganishni muvaffaqiyatli qilish uchun xizmat qiladi.

Xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning yeteneklarini, bilimlarini va qobiliyatlarini oshirish, rivojlanishi va baholanishi bo'yicha bir necha qatorlardan iborat bo'ladi. Bu dasturlar o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini yengil qilib ko'rsatish, ularning nazariy bilimlarni oshirish va kompetentliklarini rivojlanishiga yordam beradi.

NATIJA VA TAHLIL

Pedagogik tahlil esa, dasturning muvaffaqiyatining barcha tomonlarini o'rganish uchun ilmiy va tadqiqot asoslari asosida analiz qilishni talab etadi. Ushbu tahlil, dastur davomida amaliyotda qanday o'zgarishlar sodir bo'lganini, o'quvchilarning reaksiyasini va ta'siri natijasida o'quv jarayonini o'z ichiga oladi.

Pedagogik tahlil asosida o'qituvchi dasturning o'quvchilarning o'rganish va rivojlanish jarayonida qanday ta'sirlar yaratishi mumkinligini tushuntirib, undan mustaqil ravishda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagogik tahlil, o'qituvchi va dastur mualliflariga o'quvchilarning talablariga va qobiliyatlariga mos javobgar baholash dasturlarini optimallashtirishda yordam beradi.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash o'quvchi uchun ham rag'batlantiruvchi vosita, ham xatolar ustida ko'proq ishlashga undaydigan vosita bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bu tizim yanada bo'lishi kerak. Har bir fuqaro keyingi bolalarning kamolotiga mas'uliyat bilan





yondashishga qodir bo'lishi kerak. Bu o'qituvchilardan ular ustida kamroq ishlashni talab qiladi. Kelajak avlodni yuksak salohiyatli, madaniyatli, ma'naviyatli, dunyoqarashi keng inson sifatida namoyon etishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagill 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
3. Ne'matova F. B. Boshlang'ich sinflarda PIRLS xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning ahamiyati va zarurati //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 2. – С. 576-581
4. Ш.Х. Кулиева. Методологические основы системного подхода при подготовке учителей. The Web of Science 5, 39.
5. Ш.Х. Кулиева, Х.Ю Хамроева, З.Д. Расулова. Учебный процесс как педагогическая система в процессе подготовки учителей профессионального обучения. Молодой ученый, 383-385.